

**O‘ZBEKISTON TARIXIDA RENESSANSLAR DAVRI ILM, MA’RIFAT  
VA INSON QADRI — MILLIY UYG‘ONISHNING ABADIY YO‘LI**

**ЭПОХИ РЕНЕССАНСА В ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА  
НАУКА, ПРОСВЕЩЕНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОЕ ДОСТОИНСТВО —  
ВЕЧНЫЙ ПУТЬ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ**

**THE RENAISSANCE PERIODS IN THE HISTORY OF UZBEKISTAN  
SCIENCE, ENLIGHTENMENT, AND HUMAN DIGNITY — THE ETERNAL  
PATH OF NATIONAL REVIVAL**

*O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi  
“Toshkent Metropoliteni” DUK boshlig‘ining  
ilmiy-innovatsion rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari  
Toshkent davlat transport universiteti prorektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor v.b. S.T. Norkulov*



## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada O‘zbekiston tarixida yuz bergan uch yirik uyg‘onish bosqichi — Birinchi Renessans (IX–XII asrlar), Ikkinchi Renessans (XIV–XVI asrlar) va XX asr boshidagi Jadidlar harakati hamda zamonaviy Uchinchi Renessans g‘oyasi tarixiy, ilmiy va ma’naviy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada ushbu davrlarda yashab ijod qilgan buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, ilm-fan, adabiyot, san’at va davlat boshqaruvidagi yuksalish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlar mazmuni ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Renessans, Birinchi Renessans, Ikkinchi Renessans, Jadidchilik, Uchinchi Renessans, ilm-fan, ma’rifat, Temuriylar davri, milliy uyg‘onish, Yangi O‘zbekiston.

**АННОТАЦИЯ** В данной статье анализируются три крупных этапа духовного и культурного возрождения в истории Узбекистана — Первый Ренессанс (IX–XII вв.), Второй Ренессанс эпохи Темуридов (XIV–XVI вв.), движение джадидов начала XX века, а также современная концепция Третьего Ренессанса. Раскрывается вклад выдающихся мыслителей и ученых в развитие мировой цивилизации, науки, литературы, искусства и государственного управления. Особое внимание уделяется реформам, осуществляемым в условиях Нового Узбекистана, направленным на формирование фундамента Третьего Ренессанса на основе приоритета науки, просвещения и человеческого достоинства.

**Ключевые слова:** Ренессанс, Первый Ренессанс, Второй Ренессанс, джадидизм, Третий Ренессанс, наука, просвещение, эпоха Темуридов, национальное возрождение, Новый Узбекистан.

**ABSTRACT** This article analyzes three major stages of spiritual and cultural revival in the history of Uzbekistan — the First Renaissance (9th–12th centuries), the Second Renaissance during the Timurid era (14th–16th centuries), the Jadid movement of the early 20th century, as well as the contemporary concept of the Third Renaissance. The contribution of outstanding scholars and thinkers to world civilization, science, literature,

art, and governance is examined. Special attention is given to the reforms implemented in the context of the New Uzbekistan aimed at establishing the foundations of the Third Renaissance based on science, enlightenment, and human dignity.

**Keywords:** Renaissance, First Renaissance, Second Renaissance, Jadidism, Third Renaissance, science, enlightenment, Timurid era, national revival, New Uzbekistan

## **Kirish**

Har bir xalqning buyukligi, eng avvalo, uning tabiiy boyliklarida emas, balki ilm, tafakkur, ma'naviyat va insoniy qadriyatlarga bo'lgan e'tiborida namoyon bo'ladi. Insoniyat tarixida o'z madaniyati, ilmiy merosi va buyuk allomalari bilan jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan xalqlar ko'p, ammo ularning orasida O'zbekiston xalqi alohida o'rin egallaydi. Chunki bu muqaddas zamin — inson tafakkuri, ilm, ma'rifat va yaratuvchanlikning uch buyuk uyg'onish davrini boshidan kechirgan noyob makondir.

Tarix guvoh: bu yurt uch marta uyg'ondi, uch bora insoniyat tafakkuriga yo'l ko'rsatdi, uch bora jahonga ilm nuri taratdi. Bugun esa Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimiz o'z tarixining eng muhim bosqichi — Uchinchi Renessans sari dadil, qat'iy va ishonch bilan qadam tashlamoqda. “Yangi O'zbekiston” g'oyasi — bu millatning o'z o'tmishini anglab, bugunini mustahkam asoslarga qurib, ertangi kunini ilm, ma'rifat va tafakkur bilan bunyod etayotgan xalqning ulug' orzusi va ma'naviy manifestidir.

### **I. Birinchi Renessans — Islom madaniyatining oltin davri (IX–XII asrlar)**

Bu davr nafaqat O'zbekiston, balki butun insoniyat tarixida oltin sahifalar bilan bitilgan. Islom madaniyatining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan ana shu asrlarda Markaziy Osiyo — xususan, Buxoro, Xorazm, Samarqand, Marv va Farg'ona — jahon ilm-fanining markaziga aylangan.

Bu zaminda yetishgan allomalar o'z asarlari bilan dunyo tafakkurining yo'nalishini belgilab berdilar. Muhammad al-Xorazmiy — algebra va algoritm fanining asoschisi, raqam tizimini jahon ilm-faniga olib kirgan daho. Ahmad al-Farg'oniy — osmon jismlarining harakati, Yer shakli va hajmi haqidagi ilmiy kashfiyotlari bilan Yevropa

ilm-fanining poydevorini yaratgan buyuk astronom. Abu Rayhon Beruniy — geografiya, tarix, falsafa, matematika va tabiiyot sohalarida insoniyat tafakkurini yuksaltirgan ensiklopedik olim. Abu Ali ibn Sino — tibbiyot ilmining sultoni, “Tib qonunlari” asari orqali butun dunyoga sog‘lom hayot ilmini yoygan mutafakkir. Abu Nasr Forobiy, Umar Xayyom, Mahmud Zamaxshariy kabi allomalar esa falsafa, mantiq, adabiyot va tilshunoslikda yangi ufqlarni ochgan.

Bu davrda ilm, din va falsafa uyg‘unlashib, inson tafakkurining yuksak bosqichini shakllantirdi. Shuning uchun ham Sharq uyg‘onishining shuhrati keyinchalik Yevropa Renessansiga asos bo‘lib xizmat qildi. Markaziy Osiyodan ko‘tarilgan ilmiy-ma’rifiy nur jahon sivilizatsiyasining poydevoriga aylangan.

## II. Ikkinchi Renessans — Temuriylar davri (XIV–XVI asrlar)

Ikkinchi Renessans davri — adolat, tafakkur va ijod uyg‘onishining yuksak bosqichi bo‘lib, u buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur nomi bilan chambarchas bog‘liq. Sohibqiron “Kuch — adolstdadir” degan shior ostida ilm, ma’naviyat va madaniyatni davlat siyosatining markaziga qo‘ydi. Uning siyosiy maktabi, adolatga tayanadigan davlat tizimi ilm-fan, san’at va adabiyotning yuksalishiga mustahkam zamin yaratdi.

Samarqand, Hirot, Shahrisabz va Buxoro o‘sha davrda jahon ilm-fani va madaniyatining markaziga aylangan. Bu davrda Mirzo Ulug‘bek — buyuk astronom, matematik va hukmdor sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari nafaqat Sharqda, balki Yevropada ham ilm-fanning yangi ufqlarini ochgan bebaho merosdir. Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari olimlar ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo‘shdilar.

Adabiyot sohasida Alisher Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Sakkokiy kabi so‘z san’atkorlari inson ruhiyatini, axloq va ma’naviyatni yuksak badiiy darajada ifoda etdilar. Kamoliddin Behzod esa Sharq miniatyura san’atining daho rassomi sifatida jahon madaniyatiga kirib bordi.

Temuriylar davrida me’morchilik, san’at va ilm-fan uyg‘unlashgan holda yangi uyg‘onish davrini yaratdi. Samarqanddagi Registon majmuasi, Ulug‘bek madrasasi,

Go'ri Amir maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Hirotidagi madrasalar va saroylar — bu uyg'onish davrining abadiy ramziga aylandi.

Bu davr — adolat, ilm va ijod uyg'unligi orqali butun Sharqda yangilanish to'loqini boshlab bergan tarixiy bosqich bo'ldi.

### III. Jadidlar davri — XX asr boshidagi Milliy uyg'onish

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalqimiz taqdiri sinovlarga to'la, ammo ruhiy uyg'onishga boy davrni boshidan kechirdi. Bu davr — milliy o'zlikni anglash, ma'rifat, ozodlik va tafakkur uyg'onishining yangi to'loqini edi.

Jadidlar — ya'ni ma'rifatparvar ziyolilar millatni jaholat, mustamlakachilik va qoloqlikdan ozod etish uchun kurashdilar. Ular “Xalqni saqlamoq uchun uni o'qitmoq lozim” degan buyuk g'oyani ilgari surib, ta'limni isloh qilish, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, matbuot, adabiyot va teatr orqali xalqni uyg'otishga kirishdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir va boshqa fidoyilar xalqni ma'rifatga chorladilar. Ularning asarlari, maktablari va g'oyalari orqali milliy ong uyg'ondi, tafakkur o'zgardi, millat qalbida ozodlik shamchasi yoqildi.

Afsuski, jadidlar harakati o'z maqsadiga to'liq erisha olmadi. Mustamlakachilik va totalitar tuzum ularni qatag'on qildi. Ammo ularning g'oyalari, ma'naviy merosi va vatanparvarligi bugungi mustaqil O'zbekiston uchun o'lmas saboq bo'lib qoldi. Jadidlar uyg'otgan ma'naviy kuch — bugungi Uchinchi Renessansning ildizidir.

### IV. Uchinchi Renessans — Yangi O'zbekiston davri

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevori barpo etilmoqda. Bu — nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlar davri, balki tafakkur, ma'rifat, ilm-fan, innovatsiya va inson qadriyatlarining uyg'onish bosqichidir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'taryapmiz”.

Bu davrning mohiyati — inson qadrini ulug‘lash, yoshlarni bilim, tafakkur va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlar va zamonaviy tafakkurni uyg‘unlashtirishdan iboratdir.

Uchinchi Renessans yo‘lida:

ta’lim va ilm-fan tizimlari tubdan yangilanmoqda;

yoshlar uchun keng imkoniyatlar, grantlar, ilmiy markazlar va innovatsion muhit yaratilmoqda;

xalqaro hamkorlik va integratsiya jarayonlari kengaymoqda;

milliy g‘urur, vatanparvarlik va inson qadri ustuvor qadriyat sifatida shakllanmoqda.

Bugungi O‘zbekiston — o‘zining buyuk o‘tmishiga munosib, kelajakka yuz tutgan yangi uyg‘onish maskanidir. Yangi tafakkur, yangi avlod, yangi mas’uliyat va yangi maqsad — bu Yangi O‘zbekistonning milliy yo‘nalishidir.

Tarix shundan dalolat beradiki:

Birinchi Renessans — ilm va tafakkur uyg‘onishining davri edi.

Ikkinchi Renessans — adolat va madaniyatning yuksalish davri edi.

Uchinchi Renessans esa — tafakkur, innovatsiya va inson qadriyatlarining uyg‘onish davridir.

Bugungi Yangi O‘zbekiston — o‘tmishdagi buyuk uyg‘onishlar davomchisi, milliy o‘zlik va ma’naviy yangilanish timsolidir.

Bu yo‘l — ma’rifat, ilm, tafakkur va abadiyat sari yo‘l!

Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans markaziga aylanayotgan yurt!

Ilm, tafakkur va ma’naviyat – millatning eng buyuk qudratidir!

## **XULOSA**

O‘zbekiston tarixida yuz bergan Renessans davrlari insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichlarini tashkil etadi. Birinchi Renessans ilm-fan va tafakkur yuksalishining oltin davri bo‘lsa, Ikkinchi Renessans adolat, san’at va madaniyat uyg‘unligining yuksak namunasidir. Jadidlar harakati esa milliy ong va ma’rifat uyg‘onishining yangi sahifasini ochdi.

Bugungi kunda Uchinchi Renessans g'oyasi tarixiy meros va zamonaviy taraqqiyot uyg'unligiga asoslanib, ilm, innovatsiya va inson qadrini milliy rivojlanishning bosh mezoniga aylantirmoqda. Yangi O'zbekiston — buyuk o'tmish an'alarini davom ettirayotgan va kelajak sari dadil intilayotgan uyg'onish makonidir.

Ilm, ma'rifat va inson qadri millat taraqqiyotining abadiy va mustahkam poydevori bo'lib qoladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Beruniy A.R. *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*.
2. Ibn Sino A.A. *Al-Qonun fi't-tibb*.
3. Ulug'bek M. *Ziji jadidi Ko'ragoniy*.
4. Navoiy A. *Xamsa*.
5. Behbudiy M. *Padarkush*.
6. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*.
7. Fitrat A. Tanlangan asarlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari va ma'ruzalar to'plami (Uchinchi Renessans konsepsiyasi).
9. O'zbekiston tarixi bo'yicha ilmiy monografiyalar va tadqiqotlar.